



**O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGI TARIXIDAGI BOSMA LUG‘ATLAR
AN‘ANASI**

Shahzoda Sog‘inboyeva

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek leksikografiyasining muhim manbalaridan biri – “Abushqa” lug‘atining yaratilish tarixi, uning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, lug‘atning Yevropa olimlari tomonidan o‘rganilishi, nashr etilishi hamda unga bog‘liq XIX asrda yaratilgan boshqa turkiy lug‘atlar tahlil qilinadi. V.V. Velyaminov-Zernov, A. Vamberi, Pave de Kurtey va Shayx Sulaymon Buxoriy kabi olimlarning “Abushqa” lug‘atidan foydalangan holdagi izlanishlari, bu lug‘atning keyingi davr o‘zbek leksikografiyasi uchun asosiy manba bo‘lgani ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “Abushqa” lug‘ati, o‘zbek leksikografiyasi, V.V. Velyaminov-Zernov, A. Vamberi, Shayx Sulaymon Buxoriy, turkiy tillar, chig‘atoy tili, bosma lug‘atlar.

**THE TRADITION OF PRINTED DICTIONARIES IN THE HISTORY OF
UZBEK LEXICOGRAPHY**

Shahzoda Sog‘inboyeva

Student of Namangan State University

Annotation: This article discusses one of the most important sources in Uzbek lexicography — the “Abushqa” dictionary, its creation history, significance, and role in linguistic studies. It also analyzes the research and publication of the dictionary by European scholars, as well as other Turkic dictionaries compiled in the 19th century that are related to it. The works of scholars such as V.V. Velyaminov-Zernov, A. Vambery, Pave de Courteille, and Shaykh Sulaymon Bukhari, who used the “Abushqa” dictionary in their research, are reviewed. The study emphasizes the dictionary’s importance as a fundamental source for later stages of Uzbek lexicography.

Keywords: “Abushqa” dictionary, Uzbek lexicography, V.V. Velyaminov-Zernov, A. Vambery, Shaykh Sulaymon Bukhari, Turkic languages, Chagatai language, printed dictionaries.

O‘zbek leksikografiyasida qo‘lyozma va bosma lug‘atlarni o‘zaro bog‘lovchi manba - yuqorida zikr etilgan «Abushqa» lug‘atidir. Bu lug‘at taxminan 1560-yilda tuzilgan bo‘lib, muallifi noma’lumligi sababli, uni atroflicha o‘rgangan Sharq va G‘arb turkiyshunoslari o‘rtasida ayni shu nom - lug‘atning boshlang‘ich so‘zi «Abushqa» bilan mashhur bo‘lib kelgan. Bu lug‘at bir necha asr davomida Alisher Navoiy va unga zamondosh bo‘lgan ayrim shoir va adiblar asarlari tilini o‘rganishda muhim qo‘llanma vazifasini bajargan va o‘zidan keyingi davrlarda yaratilgan lug‘atlar uchun asosiy

manba bo'lgan. U dastlab venger olimi Arminiy (German) Vamberi tomonidan 1862-yilda venger tiliga qisqartirib (misollarsiz) tarjima qilingan holda chop etilgan¹. 1868-yilda esa filologiya fanlari doktori, Imperatorlik (Rossiya) Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi V.V.Velyaminov-Zernov tomonidan nashr qilingan².

V.V.Velyaminov-Zernov lug'atni nashrga tayyorlash jarayonida uning turkiyshunoslikdagi ahamiyatiga, Yevropa turkiyshunoslari tomonidan o'rganilishiga alohida e'tibor beradi, lug'atning bir necha qo'lyozmalarini, Navoiy asarlari uchun tuzilgan boshqa qo'lyozma lug'atlarni qiyosan o'rganadi va shu yo'l bilan lug'atdagi kamchilik va nuqsonlarni mumkin qadar bartaraf etishga harakat qiladi; buning uchun esa Alisher Navoiyning qo'lyozma va bosma asarlaridan o'z imkoniyati doirasida bo'lganlarini sinchiklab mutolaa qiladi; lug'at muallifining she'riy «Sababi nazmi kitob...»idan kelib chiqib, lug'atga «Al-lug'atun Navoiyya val istishhodot ul-chig'atoiyya» (Navoiy so'zlari va chig'atoycha daliliy misollar) deb nom qo'yadi. Xullas, lug'atga yozilgan 31 betlik so'zboshida V.V.Velyaminov-Zernov lug'at ustida olib borgan tadqiqotlarini, lug'atni nashr etish tamoyillarini, o'zi o'rgangan qo'shimcha materiallarni o'quvchiga batafsil tushuntirib, lug'atni «eng yaxshi chig'atoy adiblari asarlarini o'ta aniq¹ tushunib olishlari uchun boy materialga ega bo'lgan lug'at» deb baholaydi.

Ayni XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan va bevosita «Abushqa»ga, yana boshqa qo'lyozma lug'atlarga aloqador bo'lgan 3 ta lug'atni eslatib o'tish joizki, ular ham o'zbek leksikografiyasi tarixida o'zining alohida o'rniga ega. Bularning birinchisi A.Vamberi qalamiga mansub, grammatik ocherklardan iborat chig'atoy (o'zbek) tili darsligi bo'lib, muallif unga xrestomatiya va lug'at ilova qiladi¹. Xrestomatiyada turkiy xalqlar, asosan, o'zbek xalqi folkloriga oid 30 dan ortiq asar haqida ma'lumot bergan, ulardan parchalar keltirgan, shuningdek, Navoiy, Fuzuliy, Nasimiy, So'fi Olloyor g'azallaridan olingan namunalarni va 112 ta o'zbek maqolini arab va lotin yozuvida keltirib, nemischaga tarjima qilib bergan. Chig'atoycha (o'zbekcha)-nemischa lug'at so'zligi esa asosan A.Vamberi o'zi nashr etgan «Abushqa» so'zligi hamda yuqoridagi xrestomatiya matnlari bo'yicha tuzilgan bo'lib, XVI-XIX asrlar o'zbek tili leksikasini o'zida aks ettirgan. «Abushqa»ga aloqador lug'atlarning ikkinchisi fransuz olimi Pave de Kurtey tomonidan tuzilgan lug'at bo'lib, u shartli ravishda «Sharqiy turkiy lug'at» deb nomlanadi va muallifning ko'rsatishicha, Mir Alisher Navoiy, Bobur va Abulg'ozixon asarlarini o'qish-o'rganishni yengillashtirish va qulaylashtirishni ko'zda tutadi hamda 6000 ga yaqin so'zni (fransuzcha tarjimasini bilan) qamrab oladi. Lug'atni tuzishda muallif asosan «Abushqa» materiallariga, Mirzo Mahdiyxon yaratgan o'zbekcha-forscha «Sangloh» lug'atining qisqacha variantiga va boshqa manbalarga tayangan².

¹ Боровков А. К. Ўзбекское языковедение // 25 лет советской науки в Ўзбекистане. -Ташкент, 1942.

XIX asrning so‘nggi choragida yaratilgan va «Abushqa» matyeriallaridan foydalanish nuqtayi nazaridan unga aloqador bo‘lgan lug‘atlardan yana biri «Lug‘ati chigatoiy va turki usmoniy» nomli lug‘atdir. Lug‘at muallifi Shayx Sulaymon Buxoriy Qudratilloh al-Qunduziy (1821-1880) hozirgi Buxoro viloyati Qorako‘l tumanidagi Qunduz qishlog‘ida tug‘ilib, Buxoro madrasalarida tahsil olgan, o‘zbek mumtoz shoirlari ijodini o‘rganib, ulardan ilhomlanib, o‘zi ham «Naqshiy» taxallusi bilan she‘rlar yozgan. Hindiston, Afg‘oniston, Sharqiy Turkiston, O‘rta Osiyo, Eron, Arabiston yarimoroli mamlakatlari, Misr, Turkiya bo‘ylab sayohatda bo‘lib, bu hududlarda yashovchi turkiy elat va xalqlar og‘zaki ijodi bo‘yicha katta material to‘plagan. 1846-yili Buxoro amiri Nasrulloxon uni Usmonli turk sultonligiga elchi va Istanbuldagi o‘zbek qavmiga rais etib tayinlagan. Shayx Sulaymon ko‘p yillar Istanbulda yashab, matbaa ishlari bilan shug‘ullangan, o‘zbek adabiyoti va folklorining Turkiyadagi targ‘ibotchisi sifatida «Mehron» nashriyoti bilan hamkorlik qilgan holda Yassaviy, So‘fi Olloyor, Umarxon va boshqa shoirlarning kitoblarini nashr ettirgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti va folklorining bilimdoni hamda o‘zbeklar qavmining raisi sifatida nufuzli anjumanlarda ishtirok etadi. Ana shunday anjumanlardan birida (Vengriyaning Sagden - Seged shahrida) bir guruh olimlar o‘zbek (chig‘atoy) tilidagi boy adabiy meros bilan yaqindan tanishish uchun bir mukammal lug‘atga ehtiyoj borligini bildirib, ana hu lug‘atni tuzib berishni Shayx Sulaymondan iltimos qiladilar. Mazkur lug‘at ana shunday taklif-iltimoslarning samarasi sifatida dunyoga keladi.

“Abushqa” lug‘ati o‘zbek leksikografiyasi tarixida muhim o‘rin tutadi. U nafaqat Alisher Navoiy va uning zamondoshlari asarlari tilini o‘rganishda, balki keyingi asrlarda yaratilgan turkiy lug‘atlar uchun ham asosiy manba vazifasini bajargan. Lug‘atning Velyaminov-Zernov tomonidan ilmiy tahrirda nashr etilishi, Vamberi, Pave de Kurtey va Shayx Sulaymon Buxoriy kabi olimlar faoliyati bu sohaning xalqaro miqyosda rivojlanishiga zamin yaratgan. “Abushqa” lug‘ati o‘zbek tili leksikasining tarixiy qatlamlarini o‘rganishda bebaho manba sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - Тошкент, 2009. - Б. 107.
2. Ахманова О. С. Глоссематика Л. Ельмслева как проявление упадка современного буржуазного языкознания. // Вопросы языкознания, 1953. №5.
3. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. - Тошкент, 2007;.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Тошкент, 2010 ва бошқалар
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008;
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах, 2006.



7. Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. -- Тошкент, 2007. - Б. 87.
8. Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (Содда гап синтаксиси учун материаллар). - Тошкент, 2002
9. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008.
10. Усмонова Ш. Психоллингвистика (ўқув-услубий мажмуа). - Тошкент, 2011.
11. Убайдуллаев А. Ҳиндистонда яратилган туркий луғат // Til va adabiyot ta'limi, № 3 2010.
12. Ғаниева С. Техрон китобхоналаридаги Навоий асарларининг кўлёзмалари // ЎТА, №4,1991.